

## O'zbekistonda oliy ta'lif sohasini rivojlantirishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish

**Teshaboeva Feruza Raximovna**

Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat pedagogika instituti

Inklyuziv ta'lif kafedrasi dosenti,(PhD)

Qo'qon, O'zbekiston



**Turdaliyeva Mukambarxon Shuxratjon qizi**

**Xamroliyeva Gulxumorxon Xabibullo qizi**

**Abdimuminova Muxlisa Abdimuminovna**

**Axmadjonova Muazzam Avazbek qizi**

Maxsus pedagogika (Surdopedagogika)

4 bosqich talabalari

### **Аннотация**

В статье рассматривается опыт самых передовых стран мира в реформировании, улучшении и повышении качества высшего образования, активном участии в глобальных образовательных процессах, применении лучших мировых практик в развитии высшего образования и модульно-кредитной системы.

**Ключевые слова:** высшее образование, обучение, метод, процесс, качество, преподаватель, технология, модульно-кредитная система

### **Abstract**

The article examines the experience of the most advanced countries in the world in reforming, improving and improving the quality of higher education, active participation in global educational processes, the application of the best world practices in the development of higher education and the modular credit system.

**Key words:** higher education, training, method, process, quality, teacher, technology, modular credit system

Bugungi kunda xayot faoliyatini va jamoatchilik kommunikasiyasini vertuallashtirish sharoitida XXI asr talabasining extiyojlariga moslashuvchan yangi yondashuvlar tatbiq etilmoqda. Zamonaviy texnologiyaning qo'llanilishi avvalo zamon o'zgarishi, talaba hamda o'qituvchi o'rtaсидаги faoliyatning insonparvarlashtirilishi, ijodiy erkinlik, mustaqil qaror qabul qilishga imkon berish kabilar bilan bog'liqdir. Bundan tashqari iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarning muntazamliligi talabalarni mustaqil ta'lif olish shakl va yondashuvlaridan foydalanishga undamoqda. SHuning uchun oliy ta'lif muassasasi o'qituvchilar oldida sifatli kadrlar tayyorlash imkonini beruvchi ta'limiyl faoliyatni tashkil etishning shakl va usullarini tanlashda kasbiy sezgirlik taqozo etilyapti. Hozirgi kunda oliy ta'lif islohatlari nafaqat O'zbekistonda, balki rivojlangan mamlakatlarda ham tezkor sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Ushbu tezkorlik zamon talabi, axborot ko'lamining va inson tafakkuri imkoniyatlarining kengayib borayotganligi bilan bog'liqdir.

Germaniya, Angliya, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Amerika Qo'shma SHatlari kabi rivojlangan davlatlarning oliy ta'lim mazmuni kredit-modul tizimi asosida takomillashtirildi. Jahan amaliyotida ilg'or tendensiya sifatida Evropa yagona ta'lim muhitining Bolon'ya tizimi, uning asosiy tamoyillari va xususiyatlari ustuvorlik qilmoqda.

Oliy ta'lim sifati, o'quv jarayonini monitoringini yuritish, natijalarni baholash indikatorlarini amaliyotga joriy etish maslalari qator olimlarning ilmiy izlanishlarida asoslab berilgan. Jumladan, O.G.Petrovich zamonaviy Rossiya oliy ta'limining jahoning globallashuv muhitida Baloniya tizimi tamoyillariga asoslanishining ikoniyatlarini ochib bergen.

Oliy ta'lim sifatini boshqarishning metodologik asoslari I.N.Kuznesovaning ilmiy ishida e'tirof etilgan. Olim ta'lim sifati tushunchasiga ta'rif bergen bo'lib, uning fikricha ta'lim xududining iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligiga ta'sir etuvchi omildir.

Hozirgi kunda jahon miqyosida kiridi-modul tizimi keng qo'llanilib kelinmoqda. Bunga sabab zamonaviy mutaxassisdan kasbiy kompetentlilik va noodatiy vaziyatlarda qaror qabul qilish, jamoada ishlash, axborotni mustaqil olish, tahlil qilish, samarali foydalanish, o'zgaruvchan vaziyatlarga moslashuvchanlik talab etiladi. Bu sifatlarga ega mutaxassisni tayyorlash esa oliy ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb masalalardan. O'qitishning kredit tizimi sanab o'tilgan jihatlarga ega kadrlarni tayyorlashga keng imkoniyat yaratadi. Qulay va samarador mazkur tizim mehnat bozorining o'zgaruvchan ehtiyojini qoplovchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining akademik harakatchanligini ta'minlaydi. Kredit tizimining ahamiyati shundaki, akademik dasturlar mehnat bozori talablariga mos holda tuziladi. Horijiy tajribilarni izchil o'rgangan holda, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida ham bir qator o'zgarishlar bo'lmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan 2019 yilning 8 oktyabrida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni imzolandi. Ushbu muhim dasturilamal hujjatda

“respublikadagi kamida 10 ta oliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining bиринчи 1 000 ta o’rindagi oliy ta’lim muassasalari ro’yxatiga kiritish va oliy ta’lim - muassasalarida o’quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modulъ tizimiga o’tkazish” belgilab berildi.

SHuningdek, 2030 yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta’lim muassasasi (OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020/2021 o’quv yilining o’zida 33 ta oliy ta’lim dargohini kredit-modulъ tizimiga o’tkazish ko’rsatib o’tildi.

Mazkur tizimning oliy ta’limga joriy qilinishi o’qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta’minalash, korrupsiyaga barham berish, ta’lim oluvchining haqiqiy bilimini yuzaga chiqarish hamda talabaning mustaqil o’qib-o’rganib, o’z ustida ishlashiga zamin yaratadi. Bugungi kunda Evropa kredit tizimi ko’hna qit’aning deyarli barcha oliy o’quv yurtida amaliyatga joriy etilgan. Kredit-modulъ tizimining joriy etilishi o’qituvchi va talabaning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi.

O’quv jarayonida mustaqil ta’lim olishning ahamiyati ortadi va bu kelajakda mutaxassislarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi hamda faolligini oshirishga olib keladi. Kredit-modulъ tizimida universitet talabalari har doim o’qituvchi va kursdoshlaridan yordam hamda maslahat olish imkoniyatiga ega bo’ladi. Bu esa o’zaro hamjihatlikni mustahkamlaydi va jamoada ishlash ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Etakchi xorijiy davlatlarda oliy ta’limni samarali tashkil etish, kadrlar tayyorlash jarayonini xalqaro ilg’or tendensiyalar asosida modernizasiyalashga doir ma’lumotlarni tahlil qilish hamda O’zbekistonda bo’lajak mutaxassislarni raqobatbardosh etib tayyorlash bo’yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarni o’rganish orqali quyidagi xulosalarni asoslash mumkin:

-oliy ta’lim mamlakatning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ta’sirga ega uzluksiz ta’lim bosqichidir;

-oliy ta'lif mazmuni mehnat bozori talabidan kelib chiqib shakllantirishi lozim;

-oliy ta'lif o'quv rejalarida auditoriya va auditoriyadan tashqari olib boriladigan mashg'ulotlar uchun soatlar xajmi talabalarning ham nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirishlari va amaliy ko'nikmalarni egallashlariga mos belgilanishi hamda taqsimlanishi maqsadga muvofiqdir;

-oliy ta'lifni tashkil etishda bo'lajak mutaxassisda kasbiy kompetensiyalarning intensiv shakllanishiga ustuvorlik berishga ehtiyoj mavjud;

-mamlakatimizda oliy ta'lif mazmunini optimallashtirishda kredit-modul tizimi va "bir umrlik ta'lif" tamoyillariga asoslanish jahon maydoniga chiqish qadamlaridandir.

Sanab o'tilgan xulosalar oliy ta'lifni samarali tashkil etishda jahon standartlarining muhimligini taysiflaydi. Keyingi paragrafda defektologiya yo'nalishida "Ona tili o'qitish maxsus metodikasi" modulini o'qitish samaradorligini oshirishni pedagogik, metodik muammo sifatida asoslovchi ma'lumotlar keltiriladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyomuzammedov B., Abdullaeva SH. Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amliyot. – T.: "Abu Ali ibn Sino", 2001. 79 b. 18-19 b.
2. Feruza, Teshabaeva, Mahmudova Madina, and Yuldasheva Dilbar. "The essence of inclusive education in developed countries." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol 8.1 (2020).
3. Rakhimovna, Teshaboeva Feruza. "Teaching subjects in higher education on the basis of innovative technologies." *Science Promotion* 1.2 (2023): 98-104.
4. Teshaboeva, Feruza Raximovna. "Literacy education of speech impaired children as a pedagogical psychological problem." *Confrencea* 5.05 (2023): 299-302.
5. Rakhimovna, Teshaboeva Feruza. "Teaching of sciences in higher education on the basis of innovative technologies." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.12 (2022): 141-147.
6. Raximovna, Teshaboeva Feruza. "O 'ZBEKISTONDA INKLIZUZIV TA'LIMNING RIVOJLANISHI VA ISTIQBOLLARI." QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI (2023): 873-875.
7. Feruza, Teshaboyeva. "INKLYUZIV TA'LIMNING O'ZBEKISTONDAGI RIVOJLANISHI." QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI (2023): 546-548.
8. Rahimovma, Teshaboeva Feruza, and Usmonjonova Saodatkhan Mirzakhamdamovna. "WAYS TO IMPROVE SPEECH ABILITIES OF CHILDREN WITH INTELLECTUAL DISABILITIES." (2023).

9. Rakhimovna, Teshaboeva Feruza, and Sadiqova Munavvarkhan. "PECULIARITIES OF THINKING OF CHILDREN WITH SPEECH DEFECTS." (2023).
10. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon, and Rustamova Feruzabanu. "CONTRIBUTION OF CHARLES MIKHAIL EPE TO THE EDUCATION OF DEAF CHILDREN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 563-566.
11. O'ghiloy, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Kurbanuva. "CHILDREN WITH LOCAL MOVEMENT DEFECTS." *Confrencea* 3.03 (2023): 226-230.
12. Raximova, Xurshidaxon. "NATIONAL AND FOREIGN ADVANCED TRENDS IN HIGHER EDUCATION EFFICIENCY IMPROVEMENT." *JOURNAL OF NORTHEASTERN UNIVERSITY* (2022).
13. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Nabiyeva Umidakhan. "ORGANIZING SOCIAL WORK ACTIVITIES OF STUDENTS WITH HEARING PROBLEMS." (2023).
14. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Odilova Rislig'oy. "PROBLEMS OF PREPARING HIGH SCHOOL STUDENTS WITH HEARING DEFECTS FOR FAMILY LIFE." (2023).
15. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhan, and Sharafuddinova Zuhra. "FORMATION OF MATHEMATICAL CONCEPTS OF CHILDREN WITH HEARING DEFECT USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES." (2023).
16. Komiljon, Raximova Xurshidaxon Sadikovna Sattarova Kamola. "PEDAGOGICAL AND EDUCATIONAL SYSTEM OF EDWARD SEGEN IN SPECIAL PEDAGOGY." *Confrencea* 3.03 (2023): 63-67.
17. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhan. "CORRECTIONAL AND PEDAGOGICAL WORK SYSTEM OF AUDITORY-SPEECH REHABILITATION OF CHILDREN WITH COCHLEAR IMPLANTS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.6 (2022).
18. Sobirkhonovna, Mahmudova Madina. "THE IMPORTANCE OF THE USE OF PROJECT TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS IN THE PROCESS OF INDEPENDENT LEARNING." *EURASIAN EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION* (2020): 29.
19. Sobirxonovna, Maxmudova Madinaxon. "GENEALOGY OF SCHOLARS AFTER THE 15TH CENTURY IN THE STUDY OF SPEECH DEFICIT." *Confrencea* 11.11 (2023): 21-25.
20. Sobirxonovna, Maxmudova Madinaxon. "The genealogy of thoughts of the manifestations of ancient antiquity in the study of the speech deficit of dislaliya." *Confrencea* 11.11 (2023): 17-20.
21. Sobirkhonovna, Makhmudova Madinakhon, and Goyipova Nodira. "Theoretical aspects of the development of academic mobility of future speech therapists in dual education." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.12 (2022): 148-154.
22. Dildora, Madinahan Makhmudova Musayeva. "THEORETICAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE EDUCATOR OF A SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTION ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES." *Confrencea* 12.2 (2023): 170-178.
23. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Нутқи тўлиқ ривожланмаган мактабгача ўшдаги болаларни ёзма нутққа тайёргарлигини шакллантириш муаммолари." *Confrencea* 12.2 (2023): 179-186.
24. Ramazanovna G. D. ROLE OF INNOVATION IN THE SPHERE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES //Archive of Conferences. – 2021. – C. 6-9.

25. Ramazanova G. D. IMPROVEMENT OF POSITIONS IN INTERNATIONAL RATINGS AS A RESULT OF EFFECTIVE MANAGEMENT OF INNOVATIVE PROCESSES //Archive of Conferences. – 2020. – T. 10. – №. 1. – C. 183-185.

